

## IJTIMOYIY SOHANING RIVOJLANISHIDA YANGI KONSTITUTSIYANING O'RNI

*Xushbakov Sho'hratjon Baxtiyor o'g'li*

*Samarqand Davlat Universitetining Kattaqo'rg'on filiali talabasi*

[\*xushbekovs03@gmail.com\*](mailto:xushbekovs03@gmail.com)

*Luxmonov O'ralxon Mashrab o'g'li*

*Samarqand Davlat Universitetining Kattaqo'rg'on filiali talabasi*

[\*luxmonovuralxon@gmail.com\*](mailto:luxmonovuralxon@gmail.com)

**Аннотация:** *Ushbu maqolada bevosita yangi qarorlar haqida emas, balki O'zbekiston respublikasining konstitutsiyasi yangi tahriri haqida va albatta, ijtimoiy sohadagi o'zgarishlar, yangiliklar, qarorlar va farmonlar haqida so'z boradi. Shu bilan birgalikda jamiyatimizni rivojlanishi uchun konstitutsiyaning yangi tahriri qanchalik poydevor bo'layotgani haqida ham shaxsiy xulosalar joy olgan. Kichik qadamlar bilan katta yo'llarni bosib o'tish mumkin!*

**Калит со'злар:** *Konstitutsiya, qonun, agentlik, ijtimoiy, huquqiy, hujjat, farmon, respublika, referendum, mustaqillik, davlat, nazorat, suveren.*

**Аннотация:** *Данная статья не о новых решениях, а о новой редакции Конституции Республики Узбекистан и, конечно же, об изменениях, новостях, постановлениях и постановлениях в социальной сфере. В то же время есть и личные выводы о том, что новая редакция конституции является фундаментом развития нашего общества. Маленькими шагами можно пройти долгий путь!*

**Ключевые слова:** *Конституция, закон, ведомство, социальное, правовое, документ, декрет, республика, референдум, независимость, государство, контроль, суверен.*

**Abstract:** *This article is not about new decisions, but about the new version of the Constitution of the Republic of Uzbekistan and, of course, about changes, news, decisions and decrees in the social sphere. At the same time, there*

*are also personal conclusions about how the new version of the constitution is a foundation for the development of our society. You can go a long way with small steps!*

**Keywords:** *Constitution, law, agency, social, legal, document, decree, republic, referendum, independence, state, control, sovereign.*

**KIRISH.**“Konstitutsiya- baxtimiz qomusi” degan iboralarni juda ko‘p eshitganmiz. Bu quruq gaplardek tuyilishi mumkin. Lekin, buning zamirida juda katta ma’nolar bor. Xususan davlat va xalq o‘rtasidagi aloqalarni kuchaytirish, adolat, hamkorlik, manfaatlar to‘qnashuvi; majburiyatlarni belgilaydi, nazorat qiluvchi va ta’minlovchi huquqiy- me’yoriy hujjat hisoblanadi. O‘zbekiston respublikasining davlat ramzlaridan biri bo‘lgan Konstitutsiya 1992-yil 8-dekabr kuni qabul qilingan. Albatta, mustaqillikdek buyuk ne’matga erishganimizdan keyin, xalq va davlatning huquq, majburiyatlar, manfaatlar, erkinliklarini ishlab chiqish va nazorat qilish uchun eng avval konstitutsiyani ishlab chiqish ehtiyoji paydo bo‘lgan. Bu albatta bir vaqtning o‘zida ham xalq, ham davlat manfaatlari uchun xizmat qilishi kerak edi. Va talab qilingan barcha me’yorlarga asoslangan holda ishlab chiqildi. Zamon va makon stereotiplarga asoslangan majburiyatlar, qonunlar, erkinliklar bir hujjatga jam bo‘ldi. Yani, konstitutsiyaga. Yuqorida konstitutsiya haqida qisqacha ma’lumotlar berildi, endi aniq sonlarga e’tiborimizni qaratsak:

**O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – O‘zbekiston Respublikasining asosiy qonuni**, oliy yuridik kuchga ega bo‘lgan siyosiy-huquqiy hujjat. 1992-yil 8-dekabrda 12-chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 11-sessiyasida qabul qilingan. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilinganligini nishonlash maqsadida Konstitutsiya qabul qilingan kun – 8-dekabr umumxalq bayrami – O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni deb e’lon qilindi. „O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to‘g‘risida“gi Konstitutsiyaviy qonun (1991-yil 31-avgust) ushbu Konstitutsiya uchun asos bo‘lib xizmat qilgan. Mustaqil O‘zbekistonning

birinchi Konstitutsiyasini yaratish g'oyasi ilk bor 1990-yil 20-iyunda bo'lib o'tgan mamlakat Oliy Kengashining 2-sessiyasida ilgari surilgan. Ushbu sessiya prezident Islom Karimov raisligida 64 kishidan iborat Konstitutsiyaviy komissiyani tuzish to'g'risida qaror qabul qilgan. Uning tarkibiga deputatlar, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarning vakillari, davlat hamda jamoat birlashmalari, korxonalar va xo'jaliklarning rahbarlari, huquqshunos olimlar va mutaxassislar kirgan. Oliy Kengashning 10-sessiyasida komissiya tarkibi qisman yangilangan. Komissiya ishlab chiqqan loyiha matbuotda e'lon qilinib, keng muhokama etilgan. Konstitutsiyaviy komissiya umumxalq muhokamasi yakunlarini ko'rib, loyihani tuzatib va ma'qullab Oliy Kengash sessiyasida ko'rib chiqishga tavsiya qilgan. Loyiha Oliy Kengash sessiyasida ham moddama-modda muhokama etilgandan so'ng qabul qilingan.<sup>1</sup>

Yuqorida Konstitutsiyamizga oid aniq ma'lumotlarni ko'rishingiz mumkin. Bu qonuni ishlab chiqish juda katta mehnat va kuch talab qilgan. Zero, bizning farovon hayot kechirishimiz uchun qilingan shuncha sayi- harakatlarni doimo ijobiy baholab, uni huddi bizning asosiy qadriyatimizday shakllantirishimiz juda zarur.

Shu bilan birgalikda Konstitutsiyaning yangi tahriri ham qabu qilindi.

Konstitutsiya haqida: Mazkur yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan.

Barcha shaxslarda savol tug'ilishi mumkin... Nega yangi tahrir kiritildi? Mukammal qilib ishlab chiqilgan konstitutsiya o'zgartirishlarga muhtoj emas-ku. Lekin, yuqorida zamon va makon haqida to'xtalib o'tdik. Bu shunchaki so'zlar emas, balki tub mohiyatga ega qarashlardir. Oradan 31 yil vaqt o'tdi. Dunyoviy mamlakatimizga qo'shimcha yangi qarorlar huquq va erkinliklar kerak edi. Xususan moddalardagi o'garishlar. Hammaga ma'lum konstitutsiyamizni eski tahriri 6 bo'lim 26 bob 128 moddadan iborat edi. Yangi tahrirga ko'ra u 6 bo'lim

<sup>1</sup> [https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston\\_Respublikasining\\_Konstitutsiyasi](https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston_Respublikasining_Konstitutsiyasi)

27 bob 155 moddaga o'zgartirildi. Barchasi xalqning erkin farovon hayot kechrishi uchundir.

Savlov jarayonlariga ozgina e'tibor qaratsak yani sonlar

Qonunga ko'ra, Markaziy saylov komissiyasi referendum o'tkazilgandan keyin 10 kundan kechiktirmay o'z qarorini rasmiy veb-saytda va rasmiy manbalarda e'lon qiladi. Referendumda qabul qilingan qaror (qonun) Markaziy saylov komissiyasi referendum natijalari rasman e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi. Referendum yakunlari rasmiy e'lon qilingan kuni qaror ijrosini tashkil etish uchun Oliy Majlis palatalari va prezidentga yuboriladi.

1-may kuni Markaziy saylov komissiyasi O'zbekistonda o'tgan referendumning yakuniy natijalarini e'lon qilgandi. Referendumda saylovchilarning 84,5 foizi qatnashgan (avval 84,54 foiz deb xabar berilgandi). Ro'yxatga kiritilgan 19 722 809 saylovchidan 16 667 097 nafari (16 673 189 nafari) ovoz berdi. Ulardan 611 320 nafari muddatidan oldin ovoz berishda qatnashdi.

Ovoz berishda qatnashgan fuqarolarning 90,2 foizi (90,21 foizi) yoki 15 034 608 nafari (15 040 055 nafari) yoqlab, 9,35 foizi yoki 1 558 817 nafari (shuningdek 9,35 nafari) o'zgarishga qarshi ovoz bergan. Yaroqsiz deb topilgan byulletenlar soni 73 672 ta (73 934 ta) yoki 0,44% ni tashkil etdi.<sup>2</sup>

Shu o'rinda yurtboshimiz barpo etayotgan yangi O'zbekiston har tomonlama rivoj topayotgani va rivojlanga mamlakatlar qatoridan o'rin egallayotgani barchamizni yanada shijoat bilan harakat qilishga undamoqda. Xususan, prezientimizni bir fikrlari barchamizni ko'nglimizdan chuqur o'rin egalladi:

Yangi O'zbekiston – demokratiya, inson huquq va erkinliklari borasida umume'tirof etilgan norma prinsplarga qat'iy amal qilgan holda, jahon hamjamiyati bilan do'stona hamkorlik tamoyillari asosida rivojlanadigan, pirovard maqsadi xalqimiz uchun erkin, obod va farovon hayot yaratib berishdan

<sup>2</sup> <https://www.gazeta.uz/oz/2023/05/01/decreed/>

iborat bo‘lgan davlatdir.<sup>3</sup> Ushbu fikrlar yuqoridagi gaplarimizning qanchalik to‘g‘ri ekanligining tasdig‘i sifatida qabul qilishimiz mumkin. Barcha ishlar xalqimiz kelajagi uchun qilinayotgani ham biz yoshlarni quvontiradi. Xususan qabul qilingan yangi konstitutsiya ham. Bazi bir misollar keltiramiz. Konstitutsiyaning yangi tahriridagi 1-moddani ko‘rib chiqsak:

O‘zbekiston – huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat. Konstitutsiyaning 1-moddasidagi “O‘zbekiston – suveren demokratik respublika” jumlasini quyidagicha o‘zgartirilmoqda: O‘zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo‘lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat.<sup>4</sup>

Huquqiy va ijtimoiy! Bir qarashda bu oddiy va ahamiyatsiz bo‘lishi mumkin. Lekin, tub mohiyatiga e‘tibor qaratsak juda chuqur ma‘noga ega so‘zlar. Hattoki, o‘z tasdig‘ini ham topmoqda. Barcha rivojlangan mamlakatlarga e‘tibor qaratsak, ijtimoiy sohaga katta e‘tibor qaratilgan. Ijtimoiy soha – xalq farovonligi uchun xizmat ko‘rsatadigan va jamiyatni rivojlanishi uchun xizmat ko‘rsatadigan soha hisoblanadi. Ijtimoiy so‘zining qo‘shilishi ham shu sohaga e‘tiborni kuchaytirilganligi bilan bog‘liq.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 01.06.2023 yildagi PF-82-son. Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Ijtimoiy himoya milliy agentligi (keyingi o‘rinlarda — Agentlik), shuningdek, uning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar boshqarmalari hamda tuman (shahar)larda “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari tashkil etilsin.<sup>5</sup> Yuqorida aytganimizdek. Ijtimoiy davlatga aylanganidan keyin ijtimoiy sohaning rivojlanishini eng birinchi o‘ringa qo‘yilganligi xalqni manfaatlari qanchalik davlat uchun ahamiyatliligini namoyon bo‘la boshladi.

<sup>3</sup> SHAVKAT MIRZIYOYEV - YANGI O‘ZBEKISTON DEMOKRATIK O‘ZGARISHLAR, KENG IMKONIYATLAR VA AMALIY ISHLAR MAMLAKATIGA AYLANMOQDA TOSHKENT - 2021-yil 12-bet

<sup>4</sup> <https://kun.uz/news/2023/05/02/yangi-konstitutsiya-10-ta-asosiy-ozgarish?q=%2Fuz%2Fnews%2F2023%2F05%2F02%2Fyangi-konstitutsiya-10-ta-asosiy-ozgarish>

<sup>5</sup> <https://lex.uz/docs/-6480342>

**Xulos.**Eng quvonarli holat bu, kundan – kunga rivoj topayotgan mamlakatimizning xalq farovonligiga qaratayotgan e’tibori va xalqparvar yurtboshimizning adolatli qaror va farmonlaridir. Baxtimiz qomusi bo‘lmish konstitutsiyaga kiritilgan o‘zgarishlar ham juda katta yangiliklarga sabab bo‘ldi. Har qanday holatda ham inson manfaatlari eng yuqori o‘rinda ekanligini baralla aytshimiz ana shunday yangiliklar oritdan kelmoqda. Zero, biz buyuk shaxslarning avlodlarimiz, ularga munosib tarzda harakat qilib, boshlagan ishlarini davom ettirish bizning eng oliy maqsadimiz bo‘lishi kerak va zarurdir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. <https://www.gazeta.uz/oz/2023/05/01/decree/>
2. SHAVKAT MIRZIYOYEV - YANGI O‘ZBEKISTON DEMOKRATIK O‘ZGARISHLAR, KENG IMKONIYATLAR VA AMALIY ISHLAR MAMLAKATIGA AYLANMOQDA TOSHKENT - 2021-yil 12-bet
3. [https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston\\_Respublikasining\\_Konstitutsiyasi](https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston_Respublikasining_Konstitutsiyasi)
4. <https://lex.uz/docs/-6480342>
5. <https://kun.uz/news/2023/05/02/yangi-konstitutsiya-10-ta-asosiy-ozgarish?q=%2Fuz%2Fnews%2F2023%2F05%2F02%2Fyangi-konstitutsiya-10-ta-asosiy-ozgarish>